

## TIJORAT BANKLARINING TADBIRKORLIK SUBYEKTALARINI KREDITLASH AMALIYOTIDAGI MUAMMOLAR

**Maxamadiyev Alimardon Chariyarovich**  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
2-bosqich magistri  
e-mail: maxamadiyevalimardon@mail.ru

**Annotatsiya:** Maqolada Tijorat banklarining tadbirkorlarga kredit ajratish muammolari va tadbrkorlik subektlarini kreditlash bo'yicha bir qancha rivojlangan davlatlar tajribasi tahlil qilingan. Kichik biznes va uni qo'llab quvvatlash, unga ko'ra kichik biznes subyektlarini bonifikatsiya usulida kreditlash bir qator afzalliklari, kreditlash bo'yicha ko'plab usullari hamda tajribani respublikamiz amaliyotida qo'llash tartibini joriy qilish takliflar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Kichik biznes subektlari, bank, tijorat bank, kredit, subsidiya, mikroqarz.

O'zbekistonda iqtisodiyotni isloh etish va modernizatsiya qilish yo'lidagi izchil harakatlarini kuchayirish, ularni yanada yuqori bosqichga ko'tarish bugungi kunning ustuvor vazifasi etib belgilangan. Bu vazifalarning ijrosini so'zsiz ta'minlash provardida mamlakat taraqqiyotini yanada yuksaltirish va xalq farovonligini oshirishga qaratilgan bo'lib, bunda tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishda banklarning rolini oshirish muhim sanaladi.

Har bir davlat iqtisodiyoti o'sishi va iqtisodiy rivojlanishi, bank tizimi moliyaviy barqarorligi bilan uzviy bog'liq ekanligi rivojlangan davlatlar tajribasidan ma'lum. Chunki, iqtisodiyot tarmoqlarini tarkibiy qayta qurish, yangi korxonalar barpo etish va tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishda banklar muhim o'rinni tutadi.

Zamonaviy iqtisodiy munosabatlarga jahon bozorida raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi kunda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini tubdan oshirish, tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish va rivojlantirish ularga qulay sharoit yaratish muhim ahamiyatga ega. Binobarin, hukumat tomonidan tadbirkorlik subyektlarining katta-kichikligidan qatiy nazar, ularning yangi mahsulot ishlab chiqarishini va rivojlanishini rag'batlantirish choralar ko'rib kelinmoqda.

Malumki, banklar pul mablag'lari harakatida vositachilik qiluvchi tashkilot sifatida jalg' qilingan resurslarni yuqoriroq foiz stavkasida mijozlarga taklif qiladi va shundan foyda ko'radi. Ammo banklar amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari kreditlarining foiz stavkasi bilan aholining muddatli omonatlari foiz stavkalari o'rtasida salbiy farq mavjud, yani tijorat banklari tomonidan yuqori foizda mablag'larni jalg' qilib, past foiz stavkalarida ularni tadbirkorlik subyektlariga taqdim qilish holatlari kuzatiladi. Holbuki, xalqaro bank amaliyotida qabul qilingan meyoriy andozalar bo'yicha foiz marjasni 4,5 foiz bo'lishi kerak.

Iqtisodiy lug'atda kredit bahosi - kreditdan foydalanganlik uchun foiz to'lovlarini yig'indisi sifatida qayd etilgan. Aynan shu manbada yana kredit foiz stavkasi bu – kreditorning ssudadan foydalanganligi uchun qarzdordan oladigan to'ovi ekanligi

hamda foiz miqdori bank tomonidan o‘rnatilishi ko‘rsatilgan<sup>1</sup>. Ammo kredit bahosining shakllanish jarayoni va uning boshqa elementlari xususida fikrlar bildirilmagan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “...bank tizimiga xususiy va xorijiy kapital kirib kelishi hisobidan biz davlat banklari ulushini bosqichma-bosqich kamaytirib boramiz. Bu esa sohada raqobat muhitini yaxshilashga, tijorat banklari faoliyatini, kreditlash sifati va madaniyatini har tomonlama oshirishga xizmat qiladi”<sup>2</sup>, deb ta’kidlab o‘tganidek, tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning 55-60 % i davlat dasturlari asosida berilayotganligi va ularning asosiy qismi imtiyozli kreditlarni tashkil qilishi va ularni oldini olish bo‘yicha muhim yo‘nalishlardan biridir.

Klassik nazariyada foiz stavkasi va uning meyori haqida J.Keyns: “Foiz meyori bozorda kapitaldan foydalanganlik uchun to‘lanadigan baho sifatida aniqlanadi”<sup>3</sup> , degan fikrni bildirgan. Muallif tomonidan foiz stavkasining makroiqtisodiy jihatdan shakllanish mexanizmi o‘rganilgan va iqtisodiyotdagi investitsion jarayonlarga bevosita tasir etish qobiliyatiga ega ekanligi asoslab berilgan. Shu bilan birga, banklarda kredit bahosi shakllanishi va kreditlash jarayonida ichki omillarning kredit bahosiga tasiri yetarlicha tadqiq qilinmagan.

Amerikalik iqtisodchi I.Fisher foiz stavkasiga quyidagicha tarif beradi: “...biz foizning meyorini foiz mukofoti sifatida aniqlaymiz, u pulda ifodalangan bo‘lib bir yildan so‘ng to‘lanishi kerak”<sup>4</sup>. Bunday yondashuv kredit bahosining mazmunini to‘laqonli ochib bera olmaydi. Chunki, bu yerda ko‘proq ssuda kapitali harakati tufayli yuzagga keluvchi foiz mukofotiga etibor berilgan, ammo tijorat banklarida kreditlash jarayoniga va kreditning xususiyatlariiga etibor qaratilmagan.

Kredit bahosi va kredit foiz stavkalari xususida mamlakat o‘zbek iqtisodchi olimlari qarashlari muhim hisoblanadi. Jumladan, kredit bahosi va uning shakllanishi xususida Sh.Z.Abdullayevan qarashlari ilmiy asoslangan va aniq yo‘nalishga ega ekanligi bilan e’tiborga loyiq. Jumladan, Sh.Z.Abdullayeva kredit bahosini belgilashda kredit mablag‘lari bahosi va kredit amaliyotlari xizmati qiymati asosiy mezon bo‘lib xizmat qilishini takidlab o‘tgan. Shuningdek, muallif kredit narxi bozor iqtisodiyoti talablari asosida kredit mablag‘lariga bo‘lgan talab va taklifga qarab shartnoma asosida belgilanishi, bank foiz stavkalarini o‘rnatishda ichki va tashqi bozorlarda yuzaga keladigan o‘rtacha foiz stavkalarining, mamlakatdagi inflyatsiya darajasi, tijorat banklari daromadligiga qarab ish tutishi lozimligini etirof etgan<sup>5</sup>.

B.T.Berdiyarov bu xususida quyidagi fikrlarini qayd etgan: “...berilgan kreditlar uchun olingan foizlar kreditlar bo‘yicha daromad hisoblanadi va foiz stavkasi kreditning daromadlilagini aniqlab beradi”<sup>6</sup> , deb takidlab o‘tgan.

Bank kreditlarining sifati bank tizimi va bugun iqtisodiyotning holatini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Xalqaro eksportlar fikricha, yalpi kredit portfelida muammoli kreditlar ulushining 10% dan ortishi bank sektorida tizimli

<sup>1</sup> Борисов А.Б. Большой экономический словарь.Издание 2-е;переработанное и дополненное.-М.:Книжный мир,2006.-860 с.

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28.12.2018 у.

<sup>3</sup> Кейнс Дж. Общая теория занятости, процента и денег.-М.:Прогресс,1978.-С.34.

<sup>4</sup> Fisher I. Elementary principles of Economics-New-York/1923/-370 р.

<sup>5</sup> Abdullayeva Sh.Z. “Bank risklari sharoitida tijorat banklari kredit portfelini diversifikatsiya-lash” mavzusidagi iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati.-Toshkent,2000. - 36 б.

<sup>6</sup> Berdiyarov B.T. “Tijorat banklari aktivlarining daromadliligi” mavzusida iqtisodiyot fanlari fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati.-Toshkent, 2002.- 17 б.

inqirozdan darak beradi. Aksariyat mamlakatlar kredit portfelining qoniqarsiz sifati muammosini yechish uchun qator chora-tadbirlar qo'llashga majbur edilar.

Bank menejmenti sohasida samarali ilmiy tadqiqotlar olib borgan amerikalik mutaxassis P.Rouzning fikricha, qarz oluvchi bir necha to'lovlarini amalga oshirmaganligi yoki kredit ta'minoti qiymatining kamayishi кредитни муаммоли кредитлар туркумига ўтишини англатади<sup>7</sup>, деб таъкидлаб ўтган.

G'arbning qator iqtisodchilari fikricha, kredit bo'yicha to'lovlarining grafik bo'yicha 90 kundan ortiq kechikishi yoki kredit shartnomasi shartlarining buzilishi, kreditning muammoli ekanligidan dalolat beradi.

Xorijiy davlatlarni kreditlash amaliyotini kuzatadigan bo'lsak, ularda kredit operatsiyalarni nisbatan o'rnatilgan meyorlar chegaralari. Kanadada limit – 25 % yoki garovga nisbatan eng yuqori miqdori – 50% , Daniyada limit – 35 % yoki sharoitdan kelib chiqib – 50% gacha , Fransiyada limit – 40% yoki barcha risklarni qo'shib umumlashtirganda kapitalga nisbatan besh foizdan – 40% gacha. Barcha yirik kreditlar miqdori umumiyligi kapitalning – 800% dan oshib ketmasligi, Germaniyada limit – 15% yoki har qanday yirik kredit kapitalning – 50% dan ortib ketishi mumkin emas. Barcha yirik kreditlarning miqdori umumiyligi kapitalning 800% dan oshib ketmasligi, Irlandiyada limit – 5 % yoki bir qarz oluvchiga beriladigan eng yuqori kredit summasi barcha riskka tortilgan aktivlarning 5% dan ortib ketmasligi, Yaponiyada limit – 20%, agar bankning trast va uzoq muddatli kreditlari hajmi 30% bo'lsa, Niderlandiyada limit 25%, ayrim yirik kreditlar bank kapitalining 15-20% ni tashkil etsa, 100% miqdorida qo'shimcha zahira shakllantirilishi talab etiladi (3.1.1- jadval).

### 3.1.1-jadval

#### Ayrim mamalakatlarda kredit operatsiyalariga nisbatan o'rnatilgan meyoriy chegaralar

Mamlakat	Limit,%	Izoh
Kanada	25	Garovga nisbatan eng yuqori miqdori 50%
Daniya	35	Sharoitdan kelib chiqib 50% gacha
Fransiya	40	Barcha risklarni qo'shib umumlashtirganda, kapitalga nisbatan 5% dan 40% gacha. Barcha yirik kreditlarning miqdori umumiyligi kapitalning 800 % idan oshib ketmasligi lozim
Germaniya	15	Har qanday yirik kredit kapitalning 50% idan ortib ketishi mumkin emas. Barcha yirik kreditlarning miqdori umumiyligi kapitalning 800 % idan oshib ketmasligi lozim
Irlandiya	5	Bir qarz oluvchiga beriladigan eng yuqori kredit summasi barcha riskka tortilgan aktivlarning besh foizdan ortib ketmasligi
Yaponiya	20	Agar bankning trast va uzoq muddatli kreditlari hajmi 30% bo'lsa
Niderlandiya	25	Ayrim yirik kreditlar bank kapitalning 15 dan 20% igachasini tashkil etsa, 100% miqdorida qo'shimcha zahira shakllantirilishi talab etiladi

<sup>7</sup> Роуз П. Банковский менеджмент. Пер. с анг.-Москва,1997.-С.192.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash, uning raqobatdoshligini yanada oshirish, eksport salohiyatini yuksaltirish, innovatsion va energiyani tejaydigan texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarini tashkil etish, jahon bozorida talab mavjud bo‘lgan yangi turdagи tovarlar ishlab chiqarishni o‘zlashtirish va shu orqali mamlakatimizning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda bank tizimi tomonidan olib borilayotgan kreditlash amaliyoti asosiy vazifalaridan biri bo‘lib kelmoqda.

Xususan tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish, ishlab chiqarishini modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash, zamonaviy texnologiya asosida raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadlariga tijorat banklari tomonidan 2018 yilda - 38,8 trln.so‘m, oldingi yilga nisbatan 2,4 barobarga ko‘p investitsion kreditlar ajratildi.

Bundan tashqari O‘zbekistonda 2018 yilda jami berilgan kreditlarning (167,4 trln.so‘m) 23,1% ini investitsiya kreditlari tashkil qildi. Bu 2016 yil mos davr ko‘rsatkichlariga nisbatan (12,8%) 1,8 martaga ko‘pdir. Ammo, xuddi shu ko‘rsatkichning AQShda -32,5% va Germaniyada -41,5 % ni tashkil qilganligini alohida ta’kidlash lozim. Ushbu ko‘rsatkichlardan ko‘rshimiz mumkinki, O‘zbekistonda investitsion kreditlar salmog‘ini bugungi kunda kamida ikki uch barobarga ko‘tarish zarurligini zamon talabi aytib turibdi.

Zamonaviy iqtisodiy munosabatlarga jahon bozorida raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi kunda iqtisodiyot raqobatbardoshligini tubdan oshirish, ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, ularni tashqi bozordagi amaliy ishtirokini ta’minlash, ularga qulay sharoit yaratish muhim ahamiyatga ega. Bunday sharoitda bank tizimining tadbirkorlik subyektlariga kreditlar berish amaliyotlarini o‘rganish, tahlil qilish va ularni respublika iqtisodiyotiga tatbiq etish kabi vazifalarni amalga oshirish eng dolzarb masaladir.

Albatta, yuqorida sanab o‘tilgan ayrim salbiy holatlarning yuzaga kelishiga asosiy sabab, mamlakatda tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlari kreditlash amaliyotini boshqarish va tartibga solishda davr talablaridan kelib chiqib, ma’lum darajada vositalardan ham foydalanilayotganligidir. Iqtisodiyotda bozor mexanizmlarini bundan buyon ildiz otib borishini tezlashtirishimiz va ma’muriy vositalarni iqtisodiy vositalarga o‘z o‘rnini bo‘shatib berishga erishishimiz lozim.

Shu o‘rinda olimlar fikrlarini keltirib o‘tadigan bo‘lsak, o‘z faoliyatini tashkil qilish va rivojlantirish uchun tadbirkor mablag‘ so‘rab bank-moliya sektoriga murojaat qiladi. Biznesga xos bu xususiyat keynschilik usuliga ko‘ra “samarali” hisoblanadi. J.M.Keyns o‘z nazariyasida samarali deb hisoblagan kreditlash talabini alohida ta’kidlagan edi. Bozor munosabatlari elementlari juda sekinlik bilan shakllanayotgan davrda davlat miqyosida tadbirkorlik subyektlarining maqsadlari bilan ularning kredit olish imkoniyatlari orasida juda katta nomutanosibliklar yuzaga keladi. Bu holni albatta, barqarorlashtirish usuli yordamida talabni chegaralash orqali erishish mumkin. Biroq bunday vaziyatda biz tadbirkorlik subyekti talabini muzlatib qo‘yib, ularning o‘z loyihibarini amalga oshirishga to‘sinqinlik qilgan bo‘lamiz, natijada ko‘zlangan maqsadga erishi olmaymiz.

Bugungi kunda eng asosiy vazifa, taraqqiyotni belgilovchi tadbirkorlik subyektini yetarlicha moliyaviy resurslar bilan ta’minlashdir. Iqtisodiy munosabatlarda, ishlab

chiqarishning keng ko‘lamda rivojlantirish, milliy iqtisodiyot mavqeい uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa bank tizimida tadbirkorlik subyektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirishni taqozo etadi.

Tijorat banklari kapitallashuv darajasini yanada oshirish, ushbu sohaga xususiy kapitalni jalb etish, depozit bazasini kengaytirish, iqtisodiyotga yo‘naltirilayotgan kreditlar hajmini oshirish va tijorat banklarini tadbirkorlik subyektlarini kreditlash jarayonlardagi ishtirokini yanada kengaytirish, kredit ajratish mexanizmini yanada soddalashtirish hamda ajratilgan kreditlar hajmini oshirish, avvalambor, boshlang‘ich sarmoyani shakllantirishga, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda texnologik yangilanish uchun uzoq muddatli kreditlar berishni rag‘banlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda loyihalarni amalga oshirishda banklarning tadbirkorlik subyektlarini kreditlash amaliyoti yetarli darajada emas, tijorat banklari tomonidan kreditlash operatsiyalarini to‘la-to‘kis olib borish ular tomonidan kredit siyosatining tuzilganligiga bog‘liq. Har bir bank siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa jixatlarni xisobga olgan holda o‘z kredit siyosatini shakllantirishi tijorat bankida kreditlashning muhim jihatni hisoblanadi.

Tijorat banklarining tadbirkorlik subyektlarini kreditlash amaliyotidagi muammolar to‘g‘risida qisqacha qilib quyidagilarni aytish mumkin:

*Yuqori foiz stavkalari:*

Banklarning yuqori foiz stavkalari ko‘plab tadbirkorlar uchun kreditlar olishni qiyinlashtiradi.

Bu esa ularning yangi loyihalar, ishlab chiqarish va rivojlanish uchun zararli ta’sir ko‘rsatadi.

*Talabning past darajasi:*

Tadbirkorlarning kredit olishga bo‘lgan talab pastligi, ularning moliyaviy savodxonligining yetarli darajada emasligi sababli.

Bu esa banklarning kreditlar ajratishda ehtiyojkorlik bilan yondashishiga olib keladi.

*Talab qilinadigan mulkiy kafolatlar:*

Banklarda kreditlar olish uchun juda ko‘p va qattiq talab qilinadigan mulkiy kafolatlar mavjud.

Bu esa ko‘plab tadbirkorlarga kreditlar olishni qiyinlashtiradi.

*Kredit mablag‘laridan noto‘g‘ri foydalanish:*

Ayrim tadbirkorlar kredit mablag‘larini maqsadli tarzda emas, balki shaxsiy maqsadlarda sarflashlari.

Bu esa banklarni kreditlar ajratishda ehtiyojkorlik bilan yondashishiga sabab bo‘ladi.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun bank xizmatlari sifatini yaxshilash, tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligini oshirish, hamda kredit olish shartlarini yengillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi.

*Qanday chora-tadbirlar orqali tijorat banklari va tadbirkorlar o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilash uchun.*

Tijorat banklari va tadbirkorlar o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilash uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Kredit foiz stavkalarini pasaytirish:

Banklarning kredit foiz stavkalarini pasaytirish orqali tadbirkorlarning kredit olish imkoniyatlari yaxshilanadi.

Bu ular uchun biznes loyihalarini amalga oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Kredit olish uchun talab qilinadigan mulkiy kafolatlarni yengillashtirib berish:

Banklarning kredit olish uchun qo'ygan qattiq talablarini, jumladan, mulkiy kafolatlarni yengillashtirib berish.

Bu tadbirkorlarning kredit olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligini oshirish:

Tadbirkorlar uchun moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha o'quv kurslari tashkil etish.

Bu ularning kredit olish va olingen mablag'lardan samarali foydalanish ko'nikmalarini yaxshilaydi.

Banklarning kredit ajratish jarayonini soddallashtirib berish:

Kredit ajratish uchun kerakli hujjatlar to'plamini kamaytirish va jarayonni tezlashtirish.

Bu tadbirkorlar uchun kreditlardan foydalanishni osonlashtiradi.

Davlat tomonidan subsidiyalar va kafolatlarni taqdim etish:

Davlat tomonidan tadbirkorlarga subsidiyalar va kafolat xizmatlari ko'rsatish.

Bu ularning kredit olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ushbu chora-tadbirlar tijorat banklari va tadbirkorlar o'rtaсидаги hamkorlikni mustahkamlashga, shuningdek, investitsiya faolligini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga xizmat qilishi mumkin.

Davlat tomonidan tadbirkorlarga taqdim etiladigan subsidiyalar va kafolatlar qanday samarali bo'lishi uchun:

Davlat tomonidan tadbirkorlarga taqdim etiladigan subsidiyalar va kafolatlar quyidagi holatlarda samarali bo'lishi kerak:

Maqsadli yondashuv:

Subsidiya va kafolatlar tadbirkorlarning ustuvor va istiqbolli sohalardagi investitsiya loyihalariga yo'naltirilishi lozim.

Bu davlatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasiga mos kelishi kerak.

Shaffof taqsimlash mexanizmi:

Subsidiya va kafolatlarni taqsimlash jarayoni shaffof va adolatli bo'lishi zarur.

Bu ulardan foydalanishda qonuniylikni ta'minlaydi.

Monitoring va baholab borish:

Davlat tomonidan subsidiya va kafolatlarning maqsadli va samarali foydalanishini doimiy monitoring qilib, baholab borish.

Bu ularning kutilgan natijalarni berishi yoki bermashligini aniqlash imkonini beradi.

Qo'shimcha imtiyozlarning taqdim etilishi:

Subsidiya va kafolatlar bilan bir qatorda soliq, bojxona va boshqa imtiyozlarning ham berilishi.

Bu tadbirkorlarning investitsiya faolligini oshiradi.

Kreditlarning qaytarib berilish mexanizmining yaratilishi:

Subsidiya yoki kafolat asosida olgan kreditlarni qaytarib berish uchun mexanizmning ishlab chiqilishi.

Bu davlatning mablag'laridan samarali foydalanishini ta'minlaydi.

Ushbu yondashuvlar davlat tomonidan tadbirkorlarga taqdim etiladigan subsidiyalar va kafolatlarning samaradorligini oshiradi hamda ulardan maqsadli foydalanishga xizmat qiladi.

Bugungi kun amaliyoti ko'rsatganidek, kredit berishning ushbu qoidalirini qo'llash bank zahiralaridan yanada samarali foydalanishga, banklar likvidligini oshirishga, shuningdek, iqtisodiyotning ishlab chiqarish sektorini rivojlantirishga imkon yaratadi deb hisoblaymiz.

Afsuski, bugungi kunda tijorat banklari kreditlash amaliyotida mavjut tadbirkorlik subyektlarini kapitallashtirish darajasining pastligi, menejment va marketingni mukammal tashkil etishning cheklanganligi, yirik biznes subyektlariga yuqori darajada qaramlik, ma'muriy tekshirish va nazoratning saqlanib qolinayotganligi, tadbirkorlik subyektlari moliyaviy imkoniyatlari cheklanganligi, korxona rahbarlari malakasi yetarli darajada emasligi, tovar va xizmatlar raqobatbardoshliligi past darajadaligi, xo'jalik yurituvchi subyektlar orasida o'zaro ishonchsizlik yuqori darajada bo'lganligi, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yetarli emasligi kabi muammo va kamchiliklar uchrab turadi.

Tijorat banklarida uzoq muddatli barqaror resurs bazasining yo'qligi banklarga qo'yilgan depozit mablag'larining katta qismini talab qilib olinadigan mablag'lar tashkil etadi. Bu esa nobarqaror manba hisoblanadi, tijorat banklari kreditlarining mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi samaradorligini oshirish borasidagi muammolardan yana biri bo'lib, tijorat banklarida uzoq muddatli resurslarning yetishmasligi hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik.-T.: "Iqtisod-Moliya", 2017.–732 b.
2. Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. – T.: Moliya, 2002. – 304 b.
3. Антонов Н.П., Пессель М.А. Денежное обращение, кредит и банки: Учебник.- М.: ЮНИТИ, 2006.- 510 с.
4. Белоглазова Г.Н., Кроливецкая Л.П. Банковское дело. Организация деятельности коммерческого банка: Учебник. - М.: Изд-во «Высшее образование», 2009.- 424 с.
5. Волков А.А. Управление рисками в коммерческом банке М.: Омега-Л, 2012. -160с.
6. Воробьев Е.М. Экономическая теория: Учебное пособие. 2-е изд, испр. и доп.- М.: Эксмо, 2009. - 272 с.
7. Галицкая С. В. Деньги. Кредит. Финансы: Учебное пособие: 2-е изд., перераб. и доп. Сер. Высшее экономическое образование. - М.: Эксмо, 2009. - 736 с.
8. Государственное регулирование рыночной экономики: Учебник. - 3-е изд., доп и перераб. / Под ред. В. И. Кушилина. - М.: Изд-во «РАГС», 2010. - 616 с.
9. Деньги. Кредит. Банки: учебник. - 2-е изд., перераб. и доп. / Под ред. В.В. Иванова, Б.И. Соколова.- М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2006. - 848 с.
10. Димитриади Г.Г. Риски управления банком СПб.: ЛКИ, 2010. – 240 с.
11. O'zbekiston respublikasi statistika qo'mitasining raymiy sayti(stat.uz).
12. Намазов Г.Ш. ҳудуд ижтимоий-иктисодий ривожланишини моделлаштириш ва прогнозлаш ёндашувлари таҳлили //Журнал Инновации в Экономике. – 2021. – Т. 4. – №. 6.
13. Намазов Г. сурхондарё вилояти ижтимоий-иктисодий ривожланишини эконометрик моделлаштириш //Involta Scientific Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 27-37